

## MUMTOZ ASARLARDA GUL VA BULBUL OBRAZI

*Farg‘ona davlat universiteti  
Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi  
2-bosqich 24.86 guruh talabasi  
Homidjonova Madinaxon*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada mumtoz o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanilgan gul va bulbul obrazlari poetik talqin etiladi. Lutfiy, Alisher Navoiy, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar g‘azallaridagi ramziy ma‘nolar, gulning go‘zallik va latofat timsoli sifatidagi o‘rni hamda bulbulning sadoqat, iztirob va ishq ramzi sifatida berilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu obrazlarning oshiqlik, vafo, hijron, muhabbat tuyg‘ularini badiiy ifodalashdagi o‘rni yoritilib, mumtoz adabiyot poetikasida tutgan mustahkam mavqei asoslanadi.

**KALIT SO‘ZLAR: O‘zbekcha:** gul obrazi, bulbul obrazi, oshiq, ma‘shuqa, mumtoz adabiyot, g‘azal, ramziy ma‘no, Alisher Navoiy, Lutfiy, Erkin Vohidov, ishq va hijron

**Ruscha:** образ розы, образ соловья, классическая литература, поэтика газели, символическое значение, Алишер Навои, Лутфий, Эркин Вахидов, любовь и разлука

**Inglizcha:** rose imagery, nightingale imagery, classical Uzbek literature, ghazal poetics, symbolic meaning, Alisher Navoi, Lutfiy, Erkin Vohidov, love and separation

### Kirish

O‘zbek adabiyoti qadimdan juda boy bo‘lib kelgan. Toshlarga o‘yib yozilgan yodgorliklar turkiy xalqlar orasida yozma adabiyotga e‘tibor juda katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, XIV-XV asrlarga kelib mumtoz adabiyot sezilarli darajada yuksaldi. O‘sha davrlarda hattoki bozorlardagi kosiblar ham g‘azallar yozgan degan ma‘lumotlar bor. Alisher Navoiy zamonasining o‘zida bir necha yuzlab shoirlar Navoiy taxallusida g‘azallar yozgan. Keyinchalik Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Amiriy davrida mumtoz adabiyot bir maromda davom etdi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham g‘azaliyotdan chetlanib qolgani yo‘q. o‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov “mudragan aruzni uyg‘otib yubordi”<sup>1</sup>.

Adabiyot inson ruhiyatining tarbiyachisi bo‘lsa uning asosini she‘riyat tashkil etadi. Nasr estetik zavq beradi, ko‘ngilga bevosita kirob boradi. She‘riyat esa ko‘ngil bilan birga tug‘iladi, birga yashaydi, birga quvonadi, birga yig‘laydi.

<sup>1</sup> Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – T.: Sharq, 1999. 87-bet.

Badiiy adabiyotda obraz degan tushuncha mavjud. Ushbu obrazlar turlicha bo‘lishi mumkin. Badiiy adabiyot chin ma’noda chegara bilmaydi. U har qanday davlatga, har qanday uyga, har qanday ko‘ngilga kirib bora oladi, har qanday obrazni jonlantira oladi.

Mumtoz adabiyotda eng mashhur obrazlar oshiqning bulbulga, yorning gulga qiyoslanishidir. Ushbu maqolada ayni obrazlarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Gul – go‘zallik ramzi, xushbo‘ylik belgisi, yetuklik timsoli, muhabbat belgisi. Bulbul esa oshiqlik, kezinish, gulga yaqinlik ramzi.

*Qush tili andalibdek Lutfiy xasta yolborur,  
Gul kibi chehradin oni tutma judo, jigi-jigi.*

Mavlono Lutfiy ijodidagi ushbu mashhur g‘azalning o‘zida yaqqol bulbul va gul obrazi mavjud. Ushbu baytda “andalib” so‘zi orqali bulbulga ishora qilingan. Mumtoz adabiyotda ko‘pincha “bulbul”ni “andalib” so‘zi orqali ifodalash uchraydi. Endi esa baytni zamonaviy tilga tabdil qilsak quyidagicha ma’no kelib chiqadi:

*Bulbul qush tilida sayrab, nola qilganidek Lutfiy xasta fig‘on qiladi, yolvoradi,  
yor diydorini istab kuylaydi.*

*Gul kabi yuzingdan uni judo qilma – deya oshiq yorga murojaat qilmoqda.*

Hazrat Navoiyning ham g‘azaliyotidagi eng yetakchi obrazlar aynan gul va bulbul sanaladi.

*Bu chamanda tortibon bulbul tong otquncha fig‘on,  
Ishq darsin go‘yiyo gul daftaridin o‘rganur.*

Baytga yuzaki qaraydigan bo‘lsak bulbul chamandagu gul yonida sayrayotgani ko‘z o‘ngimizga keladi. Ammo mazmuniga yuzlanib tahlil qilsak *bulbul tuni bo‘yi tinimsiz nola-yu fig‘on qilgani, gulning yonidan ketmagani* ma’lum bo‘ladi. *Go‘yoki gul daftardek va bulbul uning varoqlaridan ishq darsini o‘qiyotgandek. Qo‘shiqchi qo‘shiqni daftarga qarab aytgani kabi, bulbul ham ishq darsini gulning yaproqlariga termulib o‘qimoqda, aytmoqda.*

G‘azallarda gul yorning timsolini yuzaga keltirib, uning go‘zalligi, sitamlari, tikan sanchgandagi og‘riq kabi og‘riq berishi ham ko‘p zikr qilinadi. Masalan Alisher Navoiyning quyidagi baytida:

*Sahob atfoli jola toshlarin yog‘durg‘ali, ey gul,  
Pariy yanglig‘ zuhur aylab, junun bulbulg‘a fan qilding.*

Ya’ni: *bulut go‘daklari ko‘z yoshlarini tosh kabi yog‘dirmoqda, ey gul, sen pari kabi ko‘rinib telbalikni, jinnilikni bulbulga kasb qilding* – deyilmoqda. Kasb nima? Kasb bu – kishilarning doimiy qiladigan ishi. Baytda telbalik bulbulning kasbi – doimiy ishi sifatida ta’riflanmoqda.

Yoki:

*“Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin*

*Bag‘ri qotmish g‘unchaning, baskim erur handon anga” baytini olaylik. Ushbu so‘zlarda Navoiy aytadi-ki “bulbul guldani vafo istaydi. Biroq shudringdan g‘unchaning bag‘ri qotgan, ko‘z yoshga ko‘nikkan, rahm-shavqat nimaligini bilmaydi. Tabassumiga ishonib qolish eng katta xatodir. Tosh kabi qotgan bag‘irni berkitish uchun tabassum bir niqob xolos.*

Lutfiy ijodida gulning bulbul bilan naqadar yaqin ekani, bir-biriga qanchalar bog‘liq ekani o‘zining go‘zal ifodasini topgan.

*Yuzung sifoti Lutfiy so‘zin nozuk ayladi,  
Gul sadqasi durur, neki bulbul navo qilur.*

*Yor yuzi shu qadar go‘zal-ki, uni ko‘rgan shoirning so‘zi ham go‘zallashib ketdi. Ushbu holat huddi bulbul gulni ko‘rgach unga sadqa bo‘lib, borlig‘ini unga bag‘ishlab kuylashiga o‘xshaydi.*

Ushbular o‘zbek adabiyoti tarixidagi durdona asarlardir. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham gul va bulbul obrazidan cheklanib qolgani yo‘q. Erkin Vohidov bir g‘azalida ushbu unsurlarga alohida e‘tibor qaratadi va g‘azalni deyarli to‘laqonli shu ikki obraz orqali yetkazib beradi:

*Tun bilan yig‘labdi bulbul  
G‘uncha hajri dog‘ida.  
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib  
Qolmish uning yaprog‘ida.*

*Ko‘z yumar bo‘lsam, ko‘zim —  
Oldida paydo gul yuzim,  
G‘uncha ko‘z ochmog‘i bor  
Bulbul ko‘zin yummog‘ida.*

*Asta barg ostida tinglab  
Yotgan ermish sho‘x sabo,  
G‘uncha bulbuldan muhabbat  
Darsin olgan chog‘ida.*

*Sevgi sahrosida qolmish  
Necha Majnundan g‘ubor,  
Necha Farhod gardi yotgay  
Bistunning tog‘ida.*

*G‘unchadek chehrangga Erkin  
Jon fido etgay, sanam.  
Qatra qonidan gul unsin*

*To muhabbat bog'ida.*

Shoirning nafis soʻzlari birinchi baytdayoq oʻquvchining koʻngliga kirib boradi: *Bulbul tuni bilan gʻunchaning sogʻinchida yigʻlab chiqqan, uning koʻz yoshlari esa gʻunchaning yaprogʻida shabnamga aylanib, ilinib qolgan.*

*Men koʻzlarimni yumsam gul yuzli yorim koʻzim oldida paydo boʻladi, yaʼni men uni hayolimda koʻraman. Huddiki bulbul uyquga ketgan paytda gʻuncha ochilgani kabi – deydi shoir ikkinchi baytda.*

*Tong sabosi qanchalar shoʻx, qanchalar tutqich bermas boʻlsa ham bir muddat barg ostida harakatsiz, jim qolganini koʻrdim. Sababi bu paytda gʻuncha bulbuldan “muhabbat darsi”ni olayotgan edi, bulbul gʻuncha qoshida muhabbat kuyini kuylayotgan edi.*

Shoir ushbu besh baytli gʻazalida ikki timsolni shu qadar goʻzal holatda keltiradiki, oʻquvchi xayolida ushbu holatlar yaqqol jonlanadi. Muhabbatni tarannum etuvchi gʻazallar hamisha inson qalbi uchun zarur, ruhiyati uchun ahamiyatlidir.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, mumtoz adabiyotda gul va bulbul timsolini juda koʻp uchratamiz. Ushbu obrazlar oshiq, maʼshuqa, zoʻhid, obid, soqiy, may, raqib, ayriliq, dengiz kabi obrazlar, tamsillar qatorida mumtoz adabiyotning ajralmas qismi sifatida sanab oʻtiladi va gʻazallarning yanada jonli, yanada goʻzal, yanada taʼsirli chiqishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat. TAT. 10 jildlik, 3-jild. – T., 2011.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT. 10 jildlik, 4-jild. – T., 2011.
3. Xolboyeva Muslima Usmonjon qizi. Alisher Navoiy gʻazallarida bulbul obrazi. Journal of universal science research. 2023.
4. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. www.ziyouz.com saytidan olindi.
5. Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1969.
6. Said Ahmad. Yoʻqotganlarim va topganlarim. – T.: Sharq, 1999.
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) sayti
8. [www.mutolaa.com](http://www.mutolaa.com) sayti
9. [www.unilibrary.uz](http://www.unilibrary.uz) sayti